

## MUQOBILI YO'Q SO'ZLARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

**Kurbanova Shaxnoza Raxmatullayevna**  
UzDJTU, Tarjimonlik fakulteti 1-kurs talabasi,  
shxnzkurbanova@gmail.com  
Ilmiy rahbari: **Xodjayeveva S.S.**

**Anontatsiya:** Ushbu maqolada tarjima jarayonida tarjimon duch keladigan eng mushkul vazifalardan biri, ya'ni muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilish va bu masalada boshqa olimlarning fikri bilan tanishasiz.

**Kalit so'zlar:** transliteratsiya, so'z analogiyasi, tasviriy tarjima, kalkalash, sarlavha osti izohlari, adekvatlik, xos so'zlar, ekvivalent, ma'no aniqligi.

**Annotation:** In this article, you will get acquainted with one of the most difficult tasks that a translator faces in the process of translation, that is, translating words that have no alternative, and the opinion of other scientists on this issue.

**Key words:** transliteration, word analogy, figurative translation, copying, footnotes, adequacy, special words, equivalent, clarity of meaning.

**Аннотация:** В этой статье вы познакомитесь с одной из самых сложных задач, с которой сталкивается переводчик в процессе перевода, то есть переводом слов, не имеющих альтернативы, и мнением других ученых по этому вопросу.

**Ключевые слова:** транслитерация, аналогия слов, образный перевод, копирование, сноски, адекватность, специальные слова, эквивалент, ясность смысла.

Dunyoda hech qanday bir davlat yo'qki, boshqa davlatlar bilan ijtimoiy aloqa o'rnatmaydigan, bir-biri bilan bilim va malaka almashmaydigan bo'lsa, shu sababli ham tarjimani millatlararo bog'lovchi bir ko'priq, vosita deb hisoblashimiz mumkin. Albatta, boshqa tilli milat bilan har qanday aloqa o'rnatishda o'sha tilni bilish, hech bo'lmaganda o'sha tilni chuqur biluvchi mutaxassis tarjimonga ega bo'lish lozim. Tarjima nusxa ko'chirish emas, aynan shuning uchun ham tarjimonning bilim va malakasi yuqori bo'lishi, har jabhada ma'lumotlarga ega bo'lishi, o'sha tilga xos bo'lgan so'zlar, ibora va terminlarni o'rganib, tahlil qilib, ma'lumotni qabul qiluvchiga ma'noni buzmagani holatda yetkazib berishi kerak. Har bir asarni tarjima qilayotib adekvatlik<sup>1</sup> terminidan foydalanamiz. Adekvat tarjima deb asl matnning mazmunini tarjima qilinayotgan tilda to'g'ri va aniq berilishiga aytiladi. Eshituvchi ya'ni, qilingan tarjimani qabul qiluvchi shaxs o'sha matnning shakl jihatini emas balki matn mazmuni ma'nosini talab qiladi. To'g'ri, ba'zi tarjimalar ham grammatik, ham ma'noviy jihatdan mos bo'lishi mumkin, bu holatda so'zma-so'z tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo shuni eslatib o'tishimiz lozimki, ba'zi tarjimalarda muqobili yo'q bo'lgan so'zlar ya'ni tarjima qilinayotgan tildagi ma'lum bir joy yoxud shahar nomlari, ismlar, iboralar, termin yoki o'sha tilga xos bo'lgan milliy so'zlar

<sup>1</sup> Adekvatlik (lotincha *adaequatus*- tenglashgan, mos, aynan bir)

qatnashishi mumkin. Ayni damda biz ularni qanday usullar bilan tarjima qilish haqida so'z yuritamiz.

Xos so'zlarni tarjima qilishda bir nechta samarali usullar mavjud bo'lib, E. Ochilov o'z asarida ularning 3 tasini, F. Bakiev esa 5 xil usulini yoritib bergan Ulardan eng oson va sodda usullaridan biri bu transletiratsiya orqali tarjima qilish, ya'ni so'z talaffuzini bergan holda, ma'noni saqlab qolish. Ushbu usul orqali joy nomlari, ismlar, geografik nomlar, lavozim, gazeta, jurnal, mexmonxona nomlari, davriy nashriyotlar, korxona, firma, tashkilot nomlarini tarjima qilishda keng qo'llaniladi. Namuna sifatida:

**Qutidor** (K.Ermakova Kutidor shaklida bergan) – lavozim,

**Andijan** (Mark Riz Andijon shaklida qo'llagan) – shahar nomi,

**Otabek** (K.Ermakova tarjimasida **Atabek** deb tarjima qilgan)—shaxs ismi,

Bundan tashqari ingliz tilidagi **Isaac** so'zini bir necha usullarda transliteratsiya qilingan holatlari uchraydi. Misol uchun diniy matnlarda bu ism Isak, ilmiy matnlarda esa Ayzek deb, boshqa holatlarda esa Isoq yoki Ishoq deb keltirib o'tilgan. Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, bu yerda matn uslubi va janridan tashqari transliteratsiya, transkripsiya va diniy an'nalari ham katta ahamiyatga ega.

Ikkinchi va eng unumli usullardan biri bu – ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish yoki so'z analogiyasi<sup>2</sup> deb ham yuritiladi. Ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish – matnda muqobili bo'lmagan so'zlarni o'sha ma'noga yaqin boshqa so'z bilan tinglovchiga yetkazib berish hisoblanadi. Buning uchun tarjima qilinayotgan tilda o'sha so'z, ibora va terminning yaqin ma'noli ekvivalentini topish va aytilmoqchi bo'lgan gapning butun ma'zmunini saqlab qolgan holatda yetkazib berish lozim. Misol uchun, o'zbek tilidagi **“sumalak”**, **“halim”**, **“muddaris”**, **“mullavachcha”** so'zlarining muqobil variant yo'qligi uchun ularning o'rniga boshqa yaqin ma'noli birliklardan foydalanish mumkin. **“Mullavachcha”** so'zi o'rnida biz **student** yoki **pupil** so'zini qo'llashimiz maqsadga muvofiq. Bulardan tashqari quyidagi gaplarni misol tariqasida ko'rishimiz mumkin:

**“A dagger was hanging on Takhir's belt which encompassed his wet homespun striped shirt”** – Tohir yomg'irda ho'l bo'lib, badaniga yopishib turgan chakmonining ustidan xanjar taqib olgan edi.

**“And the next day he went to see his father at his `shelter of solitude`”**– Yana ikki kundan keyin otasini ko'rish uchun xobgohidan chiqdi.

Har bir tarjimon milliy so'zlarni tarjima qilishga turlicha yondoshadi. Ayrim tarjimonlar milliy bo'yoqlardan holi bo'lgan va tarjima tilida o'zining ma'no va vazifa jihatda uyg'un ekvivalentga ega bo'lgan vositalarni ham milliyligini saqlab qolish maqsadida transliteratsiya usulida tarjima qilishadi. Shu o'rinda E. Ochilov<sup>3</sup> **“Badiiy tarjima masalalari”** kitobida asar tarjimasini saqlab qolish bo'limini **“Muammolar muammosi”** deb atagani bejiz emas.

Muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilishning eng oson yo'li bu - so'zlarni transliteratsiya qilish, ya'ni so'z talaffuzini berish, saqlash hisoblanadi. Bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, geografik nomlarni, lavozimlarni, gazeta va jurnallar,

<sup>2</sup> Analogiya (yunon.analogia- muvofiqlik,o'xshashlik)

<sup>3</sup> E.Ochilov , Tarjima nazariyasi va amaliyoti, O'quv qo'llanma –Toshkent 2012. 76-78 betlar.

ya'ni davriy nashr nomlarini, korxona, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng qo'llanadi. Ba'zan ma'lum maqsadda transliteratsiyadan foydalaniladi. Tarjima nazariyasida mavjud adabiyotlarning ko'rsatishicha, transliteratsiyadan foydalanish afzalliklarga ega, chunki transliteratsiya asliyatda ishlatilgan so'zning talaffuz shaklini beradi. Transliteratsiya so'zning grafik jihatini hisobga oladi. Muqobili bo'lmagan so'zlarni quydagi yo'llar bilan tarjima qilganimizda tarjimaga ozgina bo'lsada muqobillik bera oladi. 1) transliteratsiya, 2) sarlavha osti izohlari va tushuntirish, 3) kalkalash, 4) o'xshash so'zlar bilan tarjima qilish, 5) tasviriy tarjima.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, tarjimon shakl bilan emas, balki ma'no bilan ishlaydi. Shu sababli har bir yosh tarjimon avvalo matnning mazmuni bilan ishlashi, u yerda keluvchi xos so'zlar, birliklarni ya'ni muqobili yo'q bo'lgan so'zlarni o'girilayotgan tilda mos ekvivalentini topishi va mazmunni buzilmagan holatda yetkazib berishi uchun izlanishi, ikki tilda ham (ya'ni Source language and Target language) milliy xos so'zlar ibora va terminlarni bilishi, uning kontekstdagi ma'nosini aniqlay olishi uchun harakat qilishi shart. Aks holda tarjimada ma'no buzilishi yuzaga keladi. Tarjimada muqobillik haqida gapirganimizda, biz birinchi navbatda manba matnni tarjima matniga imkon qadar to'liq hajmda tarjima qilishni aytamiz. Biroq har qanday matnning lingvistik o'ziga xosligi va uslubi bo'ladi. Agar tarjimon bu uslub va yo'nalishlarni tarjimada saqlay olmasa tarjimada muqobillik saqlanmaydi va bu tarjimonning ijod ishi bo'lib qoladi. Shuning uchun ham tarjimonlar matnlarni to'liq tarjima qilishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ochilov E. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*, O'quv qo'llanma –Toshkent 2012. 76-78 betlar.
2. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. *Tarjima nazariyasi*. Darslik, "Tafakkur bo'stoni" - Toshkent, 2012. 119-122 sahifalar.
3. Omonova M.Sh. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*, O'quv qo'llanma– Toshkent, 2023. 185-187 betlar.
4. Sobirova Shohsanam Sobirjonovna, (2023). *Tarjimada muqobillik darajasi*, Yosh Olimlar, 1(9), 12–13. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8062976>